

**G.V. PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI
HUZURIDAGI DSc.03/2025.27.12.I.24.01 RAQAMLI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XUVAYDULLAYEVA IRODA XUSNIDDIN QIZI

**MEHNAT BOZORIDA INSON RESURSLARIDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

Content of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on economic sciences

Xuvaydullayeva Iroda Xusniddin qizi

Mehnat bozorida inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish.....3

Хувайдуллаева Ирода Хусниддин қизи

Повышение эффективности использования человеческих ресурсов на рынке
труда.....25

Khuvayedullayeva Iroda Khusniddin qizi

Improving the efficiency of human resource utilization in the labor
market.....51

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**G.V. PLEXANOV NOMIDAGI ROSSIYA IQTISODIYOT
UNIVERSITETINING TOSHKENT SHAHRIDAGI FILIALI
HUZURIDAGI DSc.03/2025.27.12.I.24.01 RAQAMLI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XUVAYDULLAYEVA IRODA XUSNIDDIN QIZI

**MEHNAT BOZORIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISH
SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Toshkent – 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt3860 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.reu.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponetlar:

Xasanov Rustam Robbimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat
texnika universiteti**

Dissertatsiya himoyasi 2026-yil "____" _____da soat ____ da G.V. Plexanov nomidagi RIUning Toshkent filiali qoshidagi ilmiy darajalar berish bo'yicha DSc.03/2025.27.12.I.24.01 raqamli Ilmiy kengash yig'ilishida bo'lib o'tadi. Manzil: 100164, Toshkent sh., Shahriobod ko'chasi, 3. Tel.: (99871) 262-43-50; faks: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz.

Dissertatsiya ishi bilan G.V. Plexanov nomidagi RIU Toshkent filialining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100164, Toshkent sh., Shahriobod ko'chasi, 3. Tel.: (99871) 262-43-50; faks: (99871) 262-43-60; e-mail: info@reu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.
(2026-yil "____" _____dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

K.X. Abduraxmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Z.G. Shakarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Z.Ya. Xudayberdiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda raqamli, jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi sharoitida aholining bandligini ta'minlash, boshqa tomondan esa inson resurslarini munosib tarzda mehnat bozoriga yo'naltirishga ko'ra mehnat bozorida inson resurslaridan samarali foydalanish samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. "2025-yilda dunyo bo'yicha ish bilan bandlik darajasi taxminan 61,2% ni tashkil etgan"¹. Xalqaro mehnat tashkiloti (XMT) ma'lumotlariga ko'ra, ayollarning 45,6% (15 yosh va undan kattalar) va erkaklarning 69,2% ish bilan bandligi aniqlangan.

Jahonda aholi bandligi, mehnat resurslari va mehnat bozori muammolariga bag'ishlangan tadqiqotlarda mehnat bozorida inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish yo'nalishidagi ilmiy izlanishlarga ustuvor ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada raqamli, jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalari sharoitida inson resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash tizimini takomillashtirish, mehnat bozori raqobatbardoshligini baholashning yangilangan uslubiyatini ishlab chiqish, global iqtisodiy o'zgarishlar sharoitida mehnat resurslaridan samarali foydalanish, sun'iy intellekt texnologiyalariga ko'ra, yangi ish o'rinlarini yaratish mavzulari yo'nalishidagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida aholining turmush darajasi sifatini oshirish, bandlikka ko'ra kambag'allikni keskin darajada qisqartirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish kabi yo'nalishlarda tizimli ravishda maqsadli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 17-yanvardagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-12-son Qarorga muvofiq 2025-yilda 5 million 200 ming fuqaroning bandligini ta'minlash va 1,5 million aholini kambag'allikdan chiqarish, davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan yangi kasb yo'nalishlarga o'qitish, kasb-hunarga o'qitish markazlarini tashkil etish maqsad qilingan². Bu borada mehnat bozorida inson resurslaridan samarali foydalanish samaradorligini oshirish, mehnat resurslaridan samarali foydalanishni xalqaro ko'rsatkichlar asosida baholashning uslubiyatini takomillashtirish, mehnat bozori ehtiyojlari asosida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash imkoniyatlarini oshirish, inson resurslarini munosib tarzda mehnat bozoriga yo'naltirish kabi yo'nalishdagi tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 24-maydagi PF-5022-son "Bandlik sohasida davlat siyosatini yanada takomillashtirish va mehnat organlari faoliyati samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi, 2018-yil

¹ Employment Trends 2025 – Current State of Global Employment

² Mirziyoyev Sh.M. // O'zbekiston Respublikasi Hukumat portali // O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi. "Gov.uz" elektron veb sayti, 2025-yil, 19-iyun (62297)

21-noyabrdagi PQ-4022-son “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 1-iyuldagi 410-son “Vaqtincha, mavsumiy va bir martalik ishlarda band bo‘lgan fuqarolarning mehnat faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq IL-54-21101897-“Aholining unumli bandligini oshirish asosida kambag‘allik darajasini baholash metodologiyasi” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatda aholi bandligi darajasini oshirish, ishsizlik darajasini kamaytirish va aholi mehnat daromadlarini oshirish pirovard natijalar asosi sanaladi. Ayniqsa, bozor munosabatlari sharoitida mehnat resurslari tarkibidagi iqtisodiy faol aholi ish bilan bandligini ta’minlash tizimini takomillashtirish doimo iqtisodiy fanlar diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Iqtisodiyot fanining mashhur namoyandalari: Dj. Keyns, A. Marshall, Dj. Mill, D. Rikardo, A. Smit, M. Fridman, F. Xayek³ va boshqa olimlarning asarlarida mehnat samaradorligining nazariy asoslari o‘z ifodasini topgan.

Mehnat faoliyatida samaradorlik va unumdorlik ko‘rsatkichlarini baholash kabi masalalar MDH mamlakatlari olimlaridan: Y.G.Odegov, G.G.Rudenko, A.I.Rofe, V.N.Bobkov, R.M.Nureyev, V.G.Bilkov, A.Y.Kibanov⁴ va boshqalarning asarlarida o‘z ifodasini topgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholini ish bilan bandligi O‘zbekistonda, ijtimoiy-mehnat munosabatlari, ish bilan bandlik, mehnat faoliyatida unumdorlik, natijadorlik va samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholash muammolarini tadqiq etishga: K.X. Abdurahmonov, B.X. Umurzakov, N.K. Zokirova, N.X. Raximova, Z.Ya. Xudoyberdiyev, G.K. Abdurahmonova, N.U. Arabov, D.A. Nasimov, Sh.D. Kudbiyev⁵ va boshqa olimlar katta hissa qo‘shganlar.

³ Keynes, J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. - N.Y.: BN Publishing, 2008. -296br.; Маршалл А. Основы экономической науки. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2007 г. -832 с.; Милль Дж.С. Автобиография. История моей жизни и убеждений. / Пер. с англ. – М.: Рипол-Классик, 2020 г. -384 с.; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2016 г. - 1040 с.; Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. / Пер. с англ. – М.: Эксмо, 2016 г. - 1056 с.; Фридман М., Фридман Р. Свобода выбирать: Наша позиция / Пер. с англ. – М.: Новое издательство, 2007. - 356 с.; Хайек Ф.А. Конституция свободы / Пер. с англ. –М.: Новое издательство, 2018 г. - 528 с.

⁴ Одегов Ю.Г., Карташов С., Лукашевич В. Управление человеческими ресурсами. Учебник. / Под ред. Одегов Ю.Г, Лукашевич В. – М.: Кнорус, 2020 г. – 222 с.; Одегов Ю.Г, Руденко Г.Г. Экономика труда. Учебник для бакалавров. – М.: Юрайт-Издат, 2013 г. – 423 с.; Рофе А.И. Рынок труда. Учебник для бакалавров – М.: Кнорус, 2016 г. – 272 с.; Бобков В.Н., Квачев В.Г., Колмаков И.Б. Неустойчивая занятость в Российской Федерации: теория и методология выявления, оценивание и вектор. – М.: Кнорус, 2019 г. – 342 с.; Нуреев Р.М., Ахмадеев Д.Р. Неформальная занятость. Истоки, современное состояние и перспективы развития (опыт институционального анализа) –М.: Кнорус, 2021 г. – 248 с.; Былков В.Г. Рынок труда и развитие занятости населения + Е-Приложение. (Бакалавриат). Учебник. – М.: Кнорус, 2019г. – 290 с.; Кибанов А.Я, Митрофанова Е.А., Ивановская Л.В. Социально-трудовые отношения, рынок труда и занятость персонала. Учебно-практическое пособие / Под ред.Кибанов А.Я. –М.: Проспект, 2021 г. – 64 с.

⁵ Абдурахмонов Қ.Х. Меҳнат иқтисодиёти: назария ва амалиёт. Дарслик. – Т.: “Fan” нашриёти, 2019. – 595 б.

Iqtisodiy o‘shish sharoitida mehnat samaradorligini muhim ko‘rsatkichlari va ularni tanlash hamda baholash bo‘yicha A.M. Galayini, J.S. Nobel, M. Ishaq Bhatti, H. Auan, Z. Razaq, G.P. Uayt, M. Zairi, D. Sinclair, D. Parmenter, Stiven R. Kovi, J. Broun, J. Devlin, A. Rolstadas, B. Andersen, G.K. Leong, D.L. Snyder, P.T. Uoard⁶ kabi olimlar tizimli tadqiqotlar olib borishgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida sun‘iy intellektda xodimlarning bandligi, ishga yollash strategiyasi va barqaror iqtisodiyot rivojlanishi bo‘yicha akademik K.X. Abdurahmonov⁷ A.B. Xayitov⁸, S.B. G‘oyipnazarov⁹, A.B. Irmatova¹⁰ va boshqa olimlar katta hissa qo‘shganlar.

Ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning pirovard maqsadlaridan biri hisoblagan aholining mehnat daromadlarini oshirishga xizmat qiluvchi, teng mehnatga teng haq to‘lashdagi shaffof va adolatli tizimlar hamda ularni takomillashtirish bo‘yicha muammolar chuqur tadqiq etilmaganligi hamda uslubiy va konseptual yondashuvlar yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi ushbu muammolarni nazariy, uslubiy va amaliy jihatdan o‘rganishni talab etadi.

Tadqiqotning maqsadi mehnat bozorida inson resurslaridan foydalanishni samaradorligini oshirish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Умурзаков Б.Х. ва б. Мехнат ресурслари шаклланиши ва тақсимланишининг худудий усуллари / Монография. –Т.: “Lesson Press”, 2017 й. – 184 б.; Abdurahmonov Q.X., Zokirova N.Q. Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. O‘quv qo‘llanma. –Т.: “Fan va texnologiya”, 2013-у. – 536 б.; Рахимова Н.Х. Роль и место женщины на рынке труда Узбекистана. Теория и практика. – Т.: “Фан”, 2006 г.; Худойбердиев З.Я. ва б. Тадбиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси асослари. 2-нашр. Ўқув қўлланма. –Т.: “Ilm ziyo”, 2017 й. – 344 б.; Абдурахмонова Г.Қ. Инсон ресурсларини бошқариш. Дарслик. –Т.: ЎЗР ФА “Фан” нашриёти давлат корхонаси, 2021. – 696 б.; Арабов Н.У. Ўзбекистон Республикасида меҳнат бозори инфратузилмасини ривожлантириш самарадорлигини ошириш. Монография. – Т.: “Fan va texnologiyalar” нашриёти, 2017 й. – 336 б.; Насимов Д.А. Иқтисодиётнинг инновацион ривожланиши шaroitida иш билан бандлик эгилувчанлигини таъминлаш механизмларини такомиллаштириш. Монография. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2018. – 260 б.; Кудбиев Ш.Д. Методологические основы трансформации рынка труда в развитии цифровой экономики. Монография. – Т.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2020. – 178 с.

⁶ Ghalayini, A.M., Noble, J.S.: The changing basis of performance measurement. *Int. J. Oper. Prod. Manag.* 16(8), 63–80 (1996); Mapes, J.N., New, C., Szwajczewski, M.: Performance trade-offs in manufacturing plants. *Oper. Prod. Manag.* 17(10), 1020–1033 (1997); Parmenter, D.: Key Performance Indicators: Developing, Implementing, and Using Winning KPIs. Wiley, New Jersey, USA (2009); M. Ishaq Bhatti, Hassan Awan, Z. Razaq. The key performance indicators (KPIs) and their impact on overall organizational performance. // Springer Science+Business Media Dordrecht. November, 2013. Research Paper to be published in *Corporate and Control Journal*, Vol. 13 (1), pages 84-96; White, G.P.: A survey and taxonomy of strategy-related performance measures for manufacturing. *Int. J. Oper. Prod. Manag.* 16(3), 42–61 (1996); Zairi, M., Sinclair, D.: Business process re-engineering and process management: a survey of current practice and future trends in integrated management. *Bus. Process Manag. J.* 1(1), 8–30 (1995); Parmenter, D.: Key Performance Indicators: Developing, Implementing, and Using Winning KPIs. Wiley, New Jersey, USA, 2009. P.235; Стивен Р. Кови “Семь навыков высокоэффективных людей: Мощные инструменты развития личности”. (The 7 Habits of Highly Effective People: Restoring the Character Ethic). – М.: “Альпина Паблишер”, 2012. – С. 374.; Browne, J., Devlin, J., Rolstadas, A., Andersen, B.: Performance measurement: the ENAPS approach. *Int. J. Bus. Transform.* 1, – P.73–84.; Rolstadas, A.: Enterprise performance measurement. *Int. J. Oper. Prod. Manag.* 18(9/10), – P.989–999.; Leong, G.K., Snyder, D.L., Ward, P.T.: Research in the process and content of manufacturing strategy. *Omega* 18(2), – P.109–122.

⁷ Абдурахманов Қ.Х. Искусственный интеллект основа устойчивого развития экономики. Дарслик. – Москва: ФГБОУ ВО “РЭУ им. Г.В. Плеханова”, 2023. 355 б.

⁸ Хайитов А.Б. Инсон ресурсларини бошқариш. Дарслик. – Т.: “Iqtisodiyot” нашриёт, 2019. – 409 б.

⁹ S.B.G‘oyipnazarov. Mehnat munosabatlarini takomillashtirishda sun‘iy intellektni joriy etish va inson kapitalini rivojlantirishning metodologik asoslari, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi, Toshkent, 2023.

¹⁰ Ирмадова А.Б. Ишга ёллаш стратегияси. Ўқув қўлланма. – Т.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” нашриёти, 2022. – 390 б.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

“inson resurslari” kategoriyasining nazariy-uslubiy asoslarini tahlil qilish va mehnat bozori transformatsiyasi sharoitida uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish;

inson resurslaridan samarali foydalanish mezonlari va ko‘rsatkichlarini o‘rganish va tizimlashtirish;

inson resurslaridan samarali foydalanish modellari va vositalarini qo‘llash bo‘yicha xalqaro tajribani o‘rganish va ularni O‘zbekiston Respublikasi sharoitlariga moslashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

O‘zbekistonda inson resurslari va ish bilan bandlik holatini kompleks tahlil qilish, ulardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy tendensiyalar va ziddiyatlarni aniqlash;

inson resurslaridan foydalanish samaradorligi va ish bilan bandlik darajasiga omillar ta’sirini ekonometrik tahlilini amalga oshirish;

inson resurslaridan foydalanish samaradorligiga sun’iy intellekt texnologiyalarining ta’sirini o‘rganish.

inson resurslaridan samarali foydalanish tizimini takomillashtirish istiqbollari bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozorida inson resurslaridan samarali foydalanish holati olingan.

Tadqiqotning predmetini mehnat bozorida inson resurslaridan samarali foydalanish holatini o‘rganish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqotida tizimli tahlil, guruhlash, mantiqiy fikrlash, kompleks baholash, mantiqiy va taqqoslama tahlil, statistik va ekonometrik modellashtirish, istiqbolli prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

inson kapitalini kompleks rivojlantirishga ko‘ra, korxonalar va davlat strategiyalari darajasida inson resurslarini samarali boshqarishning yagona tizimga birlashtirgan holda inson resurslaridan samarali foydalanishning makro-mikro darajadagi yondashuvlar integratsiyasiga asoslangan kompleks modeli taklif etilgan;

inson resurslaridan samarali foydalanish va to‘liq ish bilan bandlikka erishish, avvalo, kasbiy ko‘nikmalarning ish joyi talablariga muvofiqligi va mutaxassislik bo‘yicha ishlash imkoniyatlari bilan belgilanishi, shu bilan birga, ish haqidan qoniqish hal qiluvchi omil emasligi asoslangan;

sun’iy intellekt texnologiyalarining inson resurslari, bandlik va raqobatbardoshlikka keskin ta’siri sharoitida avtomatlashtirish xatarlari va mehnat salohiyati sifatini oshirish imkoniyatlarini tizimli baholash bo‘yicha sun’iy intellektning inson resurslaridan samarali foydalanishga, bandlikka va raqobatbardoshlikka ta’sirini baholovchi model taklif etilgan;

milliy, hududiy va korporativ darajalar o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda inson resurslaridan samarali foydalanish mezonlari va ko‘rsatkichlari tizimiga ko‘ra, ijtimoiy himoya va mehnat sharoitidan qoniqishi darajasi sharoitida mehnat sifati ustuvor ahamiyat kasb etishi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

inson resurslaridan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari, mezonlari va xalqaro tajriba asosida ularni milliy sharoitga moslashtirish va qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan;

milliy sharoiti uchun inson resurslaridan foydalanish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni miqdoriy baholash imkonini beruvchi ekonometrik model ishlab chiqilgan.

inson resurslaridan foydalanish va ish bilan bandlik holatining kompleks tahlili asosida kadrlar siyosatini takomillashtirish uchun amaliy ahamiyatga ega asosiy tendensiyalar baholangan;

inson resurslaridan samarali foydalanish tizimidagi asosiy muammolarni bartaraf etishning ish bilan bandlik barqarorligi va ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan takliflar asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Foydalanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, shuningdek, tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi, vazirlik va idoralar, ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish korxonasi va tashkilotlari ma'lumotlaridan foydalanilgani hamda xulosa va takliflar tegishli tarkibiy tuzilmalarda amaliyotga joriy etilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ishlab chiqilgan taklif inson resurslaridan foydalanishni baholash tizimini takomillashtirishda zamonaviy mehnat sharoitlariga ega samarali va barqaror ish o‘rinlari yaratish, ularda teng mehnatga teng haq to‘lash tamoyili asosida barqaror ish haqi bilan xodimlarni o‘z vaqtida rag‘batlantirish, malakasini muntazam oshirib borish kabi mehnat faoliyati samaradorligining muhim ko‘rsatkichlarini baholash tizimida mavjud ilmiy apparatni yanada boyitishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar va ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan inson resurslarini samarali foydalanish holatini baholash bo‘yicha strategiya va dasturlarni asoslashda, hududlarda korxonalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha maqsadli dasturlarni ishlab chiqishda, shuningdek, “Mehnat iqtisodiyoti”, “Inson resurslarini boshqarish”, “Rekruting”, va “Zamonaviy mehnat iqtisodiyoti” fanlari bo‘yicha o‘quv adabiyotlarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mehnat bozorida inson resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

inson kapitalini kompleks rivojlantirishga ko‘ra, korxonalar va davlat strategiyalari darajasida inson resurslarini samarali boshqarishni yagona tizimga birlashtirgan holda inson resurslaridan samarali foydalanishning makro-mikro darajadagi yondashuvlar integratsiyasiga asoslangan kompleks modeli bo‘yicha taklif 2024-yil 17-oktabrdagi “Xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirish jarayonlarini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-367-sonli qaror 1-ilovasi “2024–2026-yillarda xorijda vaqtincha mehnat faoliyatini amalga oshirish istagini bildirgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash dasturi” 3-bandida belgilangan “2025–2030-yillarga mo‘ljallangan xavfsiz, tartibli va qonuniy

migratsiya uchun huquqiy hamda tashkiliy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan harakatlar rejasini ishlab chiqish”da va “Ishga marhamat” monomarkazlari faoliyatida xorijga vaqtinchalik mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun ketayotgan fuqarolarni ketishdan oldin ko‘niktirish, qaytib kelgan mehnat migrantlarini ijtimoiy moslashuviga ko‘maklashish, psixologik yordam ko‘rsatishda foydalanilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 23-sentabrdagi 01/00/-03/26-9161-son ma’lumotnomasi*). Taklif boshqaruv faoliyatining samaradorligini oshirishga, korxonalar va davlat strategiyalari uslubiy ta’minotini takomillashtirishga hamda “Ishga marhamat” monomarkazlari faoliyatini natijador tashkil qilishga muayyan darajada xizmat qilgan;

inson resurslaridan samarali foydalanish va to‘liq ish bilan bandlikka erishish, avvalo, kasbiy ko‘nikmalarning ish joyi talablariga muvofiqligi va mutaxassislik bo‘yicha ishlash imkoniyatlari bilan belgilanishi, shu bilan birga, ish haqidan qoniqish hal qiluvchi omil emasligi bo‘yicha taklifdan “Xalqaro mehnat tashkiloti” tomonidan ishlab chiqilgan “2024-yil 4-oktyabrdagi PQ-347-sonli “Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik sohasida davlat siyosatini takomillashtirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori”ni ishlab chiqishda foydalanilgan va “Ishga marhamat” monomarkazlari faoliyatida kasbiy ko‘nikmalar mosligini ta’minlash va bitiruvchilarning bandligiga shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlar rejasida keng foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 23-sentabrdagi 01/00/-03/26-9161-son ma’lumotnomasi*) Taklif ishsiz va band bo‘lmagan aholini qisqa muddatlarda mehnat bozoridagi talab yuqori bo‘lgan kasblarga o‘qitish, kasbga yo‘naltirish, jumladan, bir qancha sohalarda muddatli o‘quv kurslaridagi o‘quv dasturlarini to‘liq bandlik tamoyillari asosida qayta ko‘rib chiqishga muayyan darajada xizmat qilgan;

sun‘iy intellekt texnologiyalarining inson resurslari, bandlik va raqobatbardoshlikka keskin ta’siri sharoitida avtomatlashtirish xatarlari va mehnat salohiyati sifatini oshirish imkoniyatlarini tizimli baholash bo‘yicha sun‘iy intellektning inson resurslaridan samarali foydalanishga, bandlikka va raqobatbardoshlikka ta’sirini baholash bo‘yicha taklif etilgan modeldan O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2024-yil 30-sentabrdagi PQ-345-son qarori 5-ilovasi “Kasbiy malakalarni rivojlantirish bo‘yicha tarmoq kengashlarining asosiy vazifalari”da belgilangan bandlar ijrosini samarali ta’minlashda foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 23-sentabrdagi 01/00/-03/26-9161-son ma’lumotnomasi*). Taklif kasbiy malaka va bilimlarni rivojlantirish tizimini yanada takomillashtirishning uslubiy va amaliy ta’minotini takomillashtirishga va faoliyat samaradorligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

milliy, hududiy va korporativ darajalar o‘zaro bog‘liqligini hisobga olgan holda inson resurslaridan samarali foydalanish mezonlari va ko‘rsatkichlari tizimiga ko‘ra, ijtimoiy himoya va mehnat sharoitidan qoniqishi darajasi sharoitida

mehnat sifati ustuvor ahamiyat kasb etishi taklifi O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 15.09.2024-yildagi “Xodimlar mehnatini muhofaza qilish chora-tadbirlarini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 263-son qarorida 3-bandi ijrosini ta‘minlashda keng foydalanilgan (*O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 23-sentabrdagi 01/00/-03/26-9161-son ma‘lumotnomasi*). Taklif mehnat sifatini oshirish, norasmiy ish bilan bandlikni qisqartirish, tashkilotlarning barqarorligi va samaradorligiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadigan kadrlar qo‘nimsizligini kamaytirishga muayyan darajada uslubiy asos sifatida xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 4 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha uning asosiy g‘oyalari va mazmunini aks ettirgan jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi e‘tirof etgan respublika jurnallarida 4 ta, nufuzli xorijiy jurnallarda 5 ta, shuningdek, ilmiy amaliy konferensiyalarda 5 ta va xorijiy konferensiyalarda 2 ta ma‘ruza tezislari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Tadqiqot ishining umumiy hajmi 122 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Dissertatsiyaning **kirish** qismida o‘tkazilgan tadqiqot ishining dolzarbligi va zarurati, maqsad va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, ishning respublika fan va texnologiyalarining ustuvor yo‘nalishlariga mos kelishi hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan bo‘lib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, mavzu yuzasidan nashr etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibiy tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi “**Inson resurslaridan samarali foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan bo‘lib, inson resurslaridan samarali foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yoritilgan, inson resurslaridan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari, mezonlari va xalqaro tajribalar o‘rganilgan, inson resurslaridan samarali foydalanishning ilmiy-uslubiy asoslari keltirilgan.

Bizning fikrimizcha, inson resurslaridan samarali foydalanish – ham iqtisodiy, ham ijtimoiy jihatdan juda foydali va natijadorlikka asos bo‘lib hisoblanadi. Har qanday darajadagi resurs qiymati tarkibida inson resurslari muhim o‘rinni egallaydi, salohiyat esa uning asosini tashkil etadi. Globallashuv sharoitida mamlakat iqtisodiyotini innovatsion va raqamli transformatsion tarzda rivojlantirish barqaror ish o‘rinlari yaratishni taqozo etsa, iqtisodiy o‘rinishning asosi

hisoblangan mehnat unumdorligini oshirish yuksak salohiyatli inson resurslaridan samarali foydalanishni talab etishi ta’kidlangan.

Tadqiqotchining fikricha, inson resurslaridan samarali foydalanish – xodim, ish beruvchi va davlatga o’z ta’sirini ko’rsatuvchi, ko’p qirrali, murakkab ijtimoiy-iqtisodiy jarayondir. Mamlakatda ishlab chiqarish omillaridan va inson resurslaridan samarali va to’liq foydalanish yuksak strategik iqtisodiy maqsadlarga erishish uchun muhim imkoniyat hisoblanadi. Ushbu jarayon natijador bo’lishi uchun sarflanadigan moddiy va nomoddiy resurslarning oqilona muvozanatini ta’minlash inson resurslari zimmasiga tushadi. Shuning uchun ham inson resurslaridan samarali foydalanish boshqa turdagi barcha resurslardan foydalanishga zamin yaratib beradi.



1-rasm. Inson resurslari va mehnat resurslarining bog‘liqligi¹¹.

¹¹ Muallif ishlanmasi.

Shunday ekan, tadqiqotchi tomonidan inson resurslari va mehnat resurslarining o‘zaro farqlanishi 1-rasmda tavsiflangan. Rasmda mehnat resurslari ishlab chiqarish resurslaridan biri ekanligi va uning roli xodim sifatida ish funksiyalarini bajarish bilan cheklanganligi keltirilgan. Inson resurslari esa shaxs yuqori faoliyat subyekti sifatida namoyon bo‘lishi va buning natijasida u yangi axborot mahsulotlarini yaratish xususiyatiga ega ekanligi ta’riflangan.

Mamlakatda mavjud resurslardan samarali foydalanishda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishish, ijtimoiy farovonlik, moliyaviy imkoniyatlar, iqtisodiy o‘shish va vaqtdan samarali foydalanish nazarda tutiladi, deb keltirilgan.

Tadqiqotchining ta’kidlashicha, inson resurslaridan samarali foydalanish mezonlarini aniqlash muhim metodologik qadam hisoblanadi, chunki ular tahlilning umumiy doirasini va baholashning asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Har bir mezon samaradorlikning muayyan jihatini – iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion, strategik yoki institutsional jihatlarni aks ettiradi, ammo baholash mavhum bo‘lib qolmasligi uchun dinamika va natijalarni o‘lchanadigan miqdoriy va sifat ko‘rsatkichlarini aniqlash zarur. Har bir mezon bo‘yicha ko‘rsatkichlarni tizimlashtirish makro darajada – mehnat bozoridagi davlat siyosatining natijadorligini tahlil qilish uchun ham, mikro darajada – tashkilotlarda inson resurslarini boshqarish samaradorligini baholash uchun ham qo‘llaniladigan yaxlit baholash metodikasini yaratish imkonini beradi. Dissertatsiyada barcha mezonlar asosida inson resurslardan samarali foydalanish darajasini baholash makro, mezo va mikro darajalarida amalga oshirilgan va ko‘rsatkichlar tizimlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval

Mikro, mezo va makro darajada inson resurslaridan foydalanish samaradorligini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari¹²


Mezon	Mikro daraja (korxonada miqyosida)	Mezo daraja (hudud yoki tarmoq miqyosida)	Makro daraja (mamlakat miqyosida)
Iqtisodiy	Bir xodimga to‘g‘ri keladigan mehnat unumdorligi (asosiy ko‘rsatkich). Kadrlar qo‘nimsizligi va uning iqtisodiy samarasi. Xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirish xarajatlari darajasi. Mehnatga haq to‘lash fondining korxonada umumiy xarajatlardagi ulushi.	Tarmoqdagi o‘rtacha mehnat unumdorligi. Viloyatda ish bilan bandlik va ishsizlik darajasi. Ish haqining o‘rtacha darajasi va uning tirikchilik minimumiga muvofiqligi. Tarkibiy ish bilan bandlik koeffitsiyenti (ishchi kuchining tarmoq ehtiyojlariga mosligi).	Aholi jon boshiga YIM (samaradorlikning standart makro ko‘rsatkichi). Milliy ish bilan bandlik va ishsizlik (jumladan, yashirin) darajasi. Yuqori unumli ish o‘rinlari ulushi. YIMdagi inson kapitaliga investitsiyalarning ulushi.
Ijtimoiy	Xodimlarning mehnatdan qoniqishi (so‘rovnoma ma’lumotlari bo‘yicha). Ijtimoiy himoyalanganlik (ijtimoiy paket, tibbiy sug‘urta mavjudligi). Ijtimoiy sabablarga ko‘ra kadrlar qo‘nimsizligi. Mehnat muhofazasi darajasi va baxtsiz hodisalar soni.	Hududdagi ijtimoiy barqarorlik (mojarolar, noroziliklar, kadrlar qo‘nimsizligi darajasi). Tarmoqdagi mehnat sharoitlari (ish vaqtining o‘rtacha davomiyligi, mehnat qonunchiligiga rioya qilinishi). Kasbiy kasallanish va jarohatlanish darajasi.	Hayot sifati indeksi (BMT). Xodimlarning ijtimoiy himoyalanganlik indeksi (XMT). Norasmiy sektorda ish bilan band bo‘lganlar ulushi. O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi.

¹² Muallif ishlanmasi.

Innovatsion	Innovatsion loyihalarga jalb qilingan xodimlar ulushi. Korxonaning ITTKI va ta'lim xarajatlari. Raqamli HR vositalarini (e-HRM, rekrutimga sun'iy intellekt) joriy etish.	Tarmoq/hududning raqamlashtirish darajasi (Iqtisodiyot vazirligi ma'lumotlari, reytinglar). Kreativ va innovatsion sohalarida ish bilan band bo'lganlar ulushi. Innovatsiya va kadrlarni qayta tayyorlash uchun hududiy xarajatlar.	Innovatsion rivojlanish milliy indeksi (Global Innovation Index). YIMdagi raqamli iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalarning ulushi. Aholining raqamli kompetensiyalari darajasi. Yuqori texnologiyali tarmoqlarda ish bilan band bo'lganlar ulushi.
Strategik	Kadrlar zaxirasining mavjudligi. Xodimlar kompetensiyalarining firma strategik maqsadlariga muvofiqligi. Yetakchilik salohiyatini rivojlantirish.	Kadrlar tuzilmasining tarmoqning strategik ehtiyojlariga muvofiqligi. Inson kapitalini rivojlantirish tarmoq dasturlarining mavjudligi. Hududlarning kadrlar bilan ta'minlanganlik indeksi.	Kadrlar tayyorlashning milliy strategiyalarga muvofiqligi (masalan, "O'zbekistonda inson kapitalini rivojlantirish strategiyasi-2030"). Mehnat bozori ehtiyojlarini prognozlash milliy tizimi. Xalqaro dasturlarda ishtirok etish darajasi.
Institutsional	HR strategiyasining mavjudligi va uning kompaniyaning umumiy strategiyasiga integratsiyasi. Ish vaqtining moslashuvchanligi, masofadan turib ishlash imkoniyatlari. O'zgarishlarga (inqirozlar, yangi texnologiyalar) moslashuvchanlik.	Hududiy va tarmoq ish bilan bandlik dasturlarining mavjudligi. Ijtimoiy sheriklik institutlari (kasaba uyushmalari, assotsiatsiyalar) ning rivojlanish darajasi. Hududda ish bilan bandlikning moslashuvchan shakllari ulushi.	Mehnat qonunchiligi va institutsional bazasi (qonunlar, qarorlar)ning rivojlanganligi. Mehnat huquqlarini himoya qilish darajasi (ITUC indeksi bo'yicha). Mamlakat iqtisodiyotida moslashuvchan ish bilan bandlik (frilans, masofaviy) ulushi. Davlat ish bilan bandlik xizmatlarining samaradorligi.

Dissertatsiya ishida inson resurslarini boshqarish yuqori darajada rivojlangan institutsional tizim va raqamli texnologiyalarga asoslangan nafaqat rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Germaniya, Yaponiya) misollarini, balki zamonaviy mehnat bozori muammolariga moslashish modellari qurilayotgan, mamlakatimizning demografik va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga yaqin bo'lgan davlatlar (Qozog'iston, O'zbekiston, Xitoy, Janubiy Koreya) tajribasi chuqur ko'rib chiqilgan, shuningdek, O'zbekiston sharoitida qo'llash mumkin bo'lgan jihatlarni tahlil qilindi va o'ziga xos takliflar ishlab chiqilgan va O'zbekiston Respublikasida inson resurslaridan samarali foydalanishni takomillashtirishning kompleks modeli ishlab chiqilgan (2-rasm).

Kompleks modelida O'zbekistonda inson resurslaridan samarali foydalanish makro va mikro darajada birlashtirilib, davlatning strategik tashabbuslari bilan korxonalar amaliyoti o'rtasidagi tafovut bartaraf etiladi. Makro darajada raqamli ish bilan bandlik platformalari va sun'iy intellekt asosida mehnat bozori monitoringi hamda kadrlar ehtiyojini prognoz qilish taklif etilgan bo'lsa, mikro darajada korxonalar uchun KPI va HR-analitikaning joriy etish, xodimlarni moslashtirish va o'qitish jarayonlarini raqamlashtirish orqali mehnat unumdorligi va inson kapitali samaradorligi oshiriladi. Model mahalliy takomillashtirishlar bilan cheklanmay, raqamlashtirish va innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitalini kompleks rivojlantirishni ta'minlaydi.



2-rasm. O'zbekiston Respublikasida inson resurslaridan samarali foydalanishni takomillashtirishning kompleks modeli¹³.

Dissertatsiya ishining “Inson resurslaridan samarali foydalanishning ijtimoiy-iqtisodiy tahlili”ga bag'ishlangan ikkinchi bobida O'zbekistonda inson

¹³ Muallif ishlanmasi.

resurslaridan foydalanish holati tahlili amalga oshirilgan, inson resurslaridan foydalanishdagi samarasizlik va to‘liqsiz ish bilan bandlik holati tahlili qilingan, inson resurslaridan samarali foydalanishga ta’sir etuvchi omillarni ekonometrik baholash amalga oshirilgan.

Tadqiqotchining fikricha, O‘zbekiston iqtisodiy islohotlari oldida mehnatga layoqatli bo‘lgan har bir fuqaroni bandligiga munosib ko‘maklashgan holda ishsizlik va kambag‘allik darajasini qisqartirish masalasi ko‘ndalang turibdi. Albatta, bunda istiqbolda kutilayotgan demografik bosimni milliy va hududiy mehnat bozoriga ijobiy bo‘lmagan ta’sirini e’tiborga olgan holda mavjud iqtisodiy faol aholini, ayniqsa, ishsiz fuqarolarni daromadli mehnat faoliyatiga faol jalb qilish maqsadida davlat dasturlari doirasida ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslari tarkibi ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, 2012–2024-yillar davomida O‘zbekistonda mehnat resurslari miqdori barqaror o‘shib, 17,6 mln kishidan 20,1 mln kishiga yetgan, ammo ularning umumiy aholiga nisbati pasayib, 59% dan 54,8% ga tushgan. Iqtisodiy faol aholi soni ham o‘shish dinamikasiga ega bo‘lib, 12,3 mln kishidan 15 mln kishiga ko‘tarilgan, bu esa mehnat bozorida faol ishtirok etuvchilar soni ko‘payganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ish bilan band aholining mehnatga layoqatli yoshdagilarga nisbati 66–68% atrofida o‘zgarib, muayyan barqarorlikni aks ettiradi. Ishsizlik darajasi esa turli davrlarda keskin o‘zgarishlar bilan qayd etilgan: 2012–2016-yillarda 5% atrofida bo‘lsa, 2018–2020-yillarda 9-10% ga oshgan, keyinchalik 2024-yilda 5,5% ga qaytgan. Shu bilan birga, migratsiya jarayonlari ham faol kechgan: ko‘chib ketganlar soni 2012-yilda 210,6 ming kishidan 2024-yilda 250,4 ming kishiga ko‘tarilgan, ko‘chib kelganlar soni esa 169,7 ming kishidan 241,8 ming kishiga o‘sgan.

2-jadval

Mehnat resurslari tarkibi (yillar kesimida)¹⁴

Ko‘rsatkichlar	2012	2014	2016	2018	2020	2022	2024
Mehnat resurslari	17564,3	18048,0	18488,9	18829,6	19158,2	19517,5	20085,2
Doimiy aholiga nisbatan, foizda	59,0	58,7	58,1	57,1	56,0	54,8	54,8
Iqtisodiy faol aholi soni	12286,6	12850,1	13505,4	14022,4	14641,7	14797,4	15038,9
Ish bilan band aholini mehnatga layoqatli yoshdagi aholi soniga nisbati (%da)	66,6	67,7	68,7	67,4	66,0	67,2	67,9
Ishsizlik darajasi	4,9	5,1	5,2	9,3	10,5	8,9	5,5
Ko‘chib ketganlar (ming kishi)	210653	183916	167796	174832	203629	221319	250409
Ko‘chib kelganlar (ming kishi)	169701	145354	141548	160103	191086	214821	241796

Olingan statistik natijalar inson resurslaridan samarali foydalanish masalasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, mehnat resurslari miqdoring barqaror o‘shishi va ish

¹⁴ Muallif ishlanmasi.

bilan bandlik darajasining ma'lum darajada saqlanib qolishi mehnat bozorida mavjud potensialdan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Shu bilan birga, ishsizlik darajasining o'zgaruvchanligi va migratsiya jarayonlarining kuchayishi inson resurslarini to'liq jalb etishdagi tizimli muammolarni namoyon qiladi hamda ularni samarali boshqarish va sifat jihatidan takomillashtirish zarurligini asoslab beradi.

Dissertatsiyada inson resurslaridan foydalanish samaradorligini kompleks baholash uchun nafaqat nazariy yondashuvlarni, balki iqtisodiyot va jamiyat transformatsiyasini aks ettiruvchi real statistik tendensiyalarni ham hisobga olish zarurligi qayd etilgan. 2010–2024-yillardagi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish inson kapitali sifati va iqtisodiy o'sish barqarorligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi. Raqamlashtirish va tarkibiy islohotlar sharoitida aynan inson resurslari mamlakatning innovatsion va ijtimoiy rivojlanishining asosiy omiliga aylanmoqda. Shu munosabat bilan jadvalda keltirilgan iqtisodiy, ijtimoiy va innovatsion mezonlar bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumotlar O'zbekistonda inson salohiyatidan foydalanish samaradorligi darajasi haqida yaxlit tasavvur beradi va so'nggi yillardagi islohotlar uning mahsuldorligi va raqobatbardoshligini oshirishga qanchalik hissa qo'shganini ko'rsatadi.

3-jadval

Makro darajada inson resurslaridan samarali foydalanish ko'rsatkichlari¹⁵

	2010	2014	2016	2020	2024	2024/2010
Iqtisodiy						
Aholi jon boshiga YIM	3084,6	6860	9112,5	19515	39131,4	12,69
Ish bilan bandlik	11628,4	12818,4	13298,4	13236,4	14261,9	1,23
Mehnat unumdorligi	0,26	0,53	0,68	1,47	2,74	10,34
Ishsizlik darajasi	5,4	5,1	5,2	10,5	5,5	1,02
Ijtimoiy						
Hayot sifati indeksi (BMT)	0,675	0,699	0,713	0,724	0,74	1,10
O'rtacha umr ko'rish davomiyligi	73	73,4	73,8	73,4	75,1	1,03
Jami ish bilan bandlarning ulushi	-	-	45,7	41,4	42,7	
Ish bilan bandlik darajasi	66,9	67,7	68,7	66	68,3	1,02
Norasmiy iqtisodiyotning YIMdagi ulushi, foizda	34,2	36,8	40,6	31	26,4	0,77
Innovatsion						
Innovatsion rivojlanish milliy indeksi (Global Innovation Index)	127	-	-	93	83	0,65
ITTKI bilan bandlar	35,6	35,8	37	30,3	37,2	1,04
Aholining raqamli kompetensiyalari darajasi	-	-	-	39,7	45,6	1,16

Jadval ma'lumotlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, 2010–2024-yillarda O'zbekistonda inson resurslaridan foydalanish samaradorligi keskin oshgan, bu,

¹⁵ Muallif ishlanmasi.

birinchi navbatda, mehnat unumdorligi (10,34 barobar) va aholi jon boshiga YIMning (12,69 barobar) o‘shida namoyon bo‘ldi. Bu ko‘rsatkichlar inson kapitali salohiyatining iqtisodiy faoliyatga samarali jalb etilayotganini, mehnat bozoridagi tuzilmaviy islohotlar va raqamli texnologiyalardan foydalanish natijasida resurslar qaytimi kuchayganini anglatadi.

Ijtimoiy yo‘nalishda ham ijobiy tendensiyalar kuzatilmoqda: hayot sifati indeksi 0,675 dan 0,74 ga, o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi 73 yoshdan 75,1 yoshgacha oshgan. Norasmiy iqtisodiyot ulushining 34,2% dan 26,4% gacha pasayishi mehnat munosabatlarining shaffofligi va ijtimoiy himoya tizimining kuchayganini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, innovatsion rivojlanish ko‘rsatkichlarining yaxshilanishi (Global innovatsiyalar indeksidagi o‘rinning 127-o‘rindan 83-o‘ringa o‘shishi, raqamli kompetensiyalar darajasining 1,16 barobar oshishi) inson resurslarining yangi bilim va texnologiyalarni o‘zlashtirish salohiyati o‘sib borayotganini ifodalaydi. Umuman olganda, ushbu davrda O‘zbekistonda inson kapitalidan foydalanish nafaqat iqtisodiy o‘shish, balki ijtimoiy barqarorlik va innovatsion faollik bilan uyg‘un rivojlanayotganini ko‘rsatadi.

Dissertatsiya tadqiqoti doirasida O‘zbekiston Respublikasi mehnat bozori rivojlanishining hozirgi sharoitida inson resurslaridan samarali foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari va muammolarini aniqlashga qaratilgan sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazilgan. So‘rovnomaning maqsadi xodimlardan samarali foydalanish imkoniyatlarini aniqlash, unga ta’sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat bo‘ldi. Tadqiqotning obyekti sifatida raqamli transformatsiya sharoitida mehnat faoliyati jarayonlarida ishtirok etayotgan O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining turli tarmoqlari xodimlari olingan. Tadqiqotning empirik asosini turli yosh guruhlari, faoliyat sohalari va malaka darajalarini ifodalovchi 274 nafar respondentdan iborat tanlov tashkil etdi.

Tadqiqot o‘zgaruvchilari sifatida “Mehnatdan qoniqish”, “Kasbiy ko‘nikmani mosligi”, “Kasb bo‘yicha ish topish ehtimolligi”, “Ish haqidan qoniqish va “Ishda bo‘sh turib qolish” o‘zgaruvchilari mustaqil o‘zgaruvchilar va “To‘liq ish bilan bandlik” o‘zgaruvchisi bog‘liq o‘zgaruvchi sifatida ishlab chiqilgan. Tadqiqot so‘rovnomasining demografik qismida berilgan savollar nazorat o‘zgaruvchilari sifatida qabul qilingan.

Mustaqil o‘zgaruvchilarni bog‘liq o‘zgaruvchiga ta’sirini o‘rganish maqsadida ko‘p omillik regressiya tahlillari amalga oshirildi va quyidagi matematik tenglama yaratildi:

$$Y = 1.005 + 0.211X2 + 0.093X3 \quad (1)$$

Bunda,

Y – “To‘liq stavkada ish bilan bandlik”;

X2 – “Kasbiy ko‘nikmani mosligi”;

X3 – “Kasb bo‘yicha ish topish ehtimolligi” o‘zgaruvchilarini anglatadi.

Umumiy natijada regressiya koeffitsiyentlari statistik ahamiyatli bo‘lib ($p=0.000$), quyidagi iqtisodiy ma’noni ega: “Kasbiy ko‘nikmani mosligi” darajasini 1% ga oshishi “To‘liq ish bilan bandlik” darajasini 0,21% ga oshishiga

va “Kasb bo‘yicha ish topish ehtimolligi” darajasini 1% ga oshishi “To‘liq ish bilan bandlik” darajasini 0,09% ga oshishiga olib keladi (1-jadval).

